MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING TA’LIMIY G‘OYALARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Dilmurodova Nozimaxon Dilmurodxon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili 2-fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi 2607-guruh 1-kurs talabasi:
Ilmiy rahbar: Muxammedova Nilufar PhD., Dotsent
E-mail: dilmurodovanozimaxon013@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24501445

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonovning ta’limiy g‘oyalari uning o‘z asarlari hamda tarixchi va adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlari asosida tahlil qilinib, ularning zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishdagi o‘rni asoslab beriladi. Tadqiqotda “Bizni jaholat – jahli murakkab” (1906) maqolasi va “Musulmonlik” (1908) asaridan olingan asl iqtiboslarda ilgari surilgan g‘oyalar — ongli bilim olishga chorlash, ilm-ma’rifatni saodatning birinchi vositasi deb bilish, diniy va dunyoviy ilmlarni hamda tillarni uyg‘unlashtirib o‘rganish, ishni ilm, ittifoq va to‘g‘rilik bilan bajarish — S. Xolboyev, B. Qosimov singari olimlar va boshqa tadqiqotchilarning xulosalari bilan qiyosan o‘rganiladi hamda ularning zamonaviy ta’limdagi aniq muammolarga qanday yechim bera olishi ko‘rsatiladi. Natijalar M. Abdurashidxonovning bir asr avval ilgari surgan pedagogik tamoyillari bugungi uzluksiz ta’lim, kompleks o‘quv dasturlari va akademik halollik masalalari bilan uzviy bog‘liq ekanini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: Munavvarqori Abdurashidxonov, ta’limiy g‘oyalar, “Bizni jaholat – jahli murakkab”, “Musulmonlik”, zamonaviy ta’lim tizimi, uzluksiz ta’lim, ko‘p tillilik, akademik halollik, ittifoq, ta’lim islohoti.

Abstract: This article analyzes the educational ideas of Munavvarqori Abdurashidkhanov, a leading figure of the Jadid movement in Turkestan, on the basis of his own works and the research of historians and literary scholars, and substantiates their role in shaping the modern education system. The study examines original quotations from his article “Bizni jaholat – jahli murakkab” (1906) and his work “Musulmonlik” — the call for conscious learning, the recognition of knowledge and enlightenment as the first means of a nation’s well-being, the integration of religious and secular knowledge together with languages, and the principle of acting with knowledge, unity, and honesty — and compares them with the conclusions of scholars such as S. Kholboyev and B. Qosimov. The results demonstrate that the pedagogical

principles M. Abdurashidxonov advanced a century ago remain closely connected to today’s issues of continuous education, integrated curricula, and academic integrity.

Keywords: Munavvarqori Abdurashidkhanov, educational ideas, “Bizni jaholat – jahli murakkab,” “Musulmonlik,” modern education system, continuous education, multilingualism, academic integrity, unity, educational reform.

Аннотация: В статье педагогические идеи Мунаввара Кори Абдурашидханова, ведущего представителя джадидского движения Туркестана, анализируются на основе его собственных произведений, а также исследований историков и литературоведов, и обосновывается их роль в формировании современной системы образования. Рассматриваются подлинные цитаты из статьи «Бизни жаҳолат – жаҳли мураккаб» (1906) и произведения «Мусулмонлик» — призыв к осознанному обучению, признание знания и просвещения первым средством благополучия нации, объединение религиозных и светских знаний с языками, принцип действовать со знанием, единством и честностью — и сопоставляются с выводами таких учёных, как С. Холбоев и Б. Косимов. Результаты показывают, что педагогические принципы А. Мунаввара Кори тесно связаны с современными вопросами непрерывного образования, интегрированных программ и академической честности.

Ключевые слова: Мунаввар Кори Абдурашидханов, педагогические идеи, «Бизни жаҳолат – жаҳли мураккаб», «Мусулмонлик», современная система образования, непрерывное образование, многоязычие, академическая честность, единство, реформа образования.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimini isloh qilish bugungi kunda O‘zbekistonning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Biroq bu islohotlarning ildizlarini faqat xorijiy tajribadan emas, milliy pedagogik merosdan ham izlash zarur. Turkiston jadidchilik harakatining atoqli namoyandasi, yangi usul maktabining asoschisi Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) o‘z davrida ilgari surgan ta’limiy g‘oyalar bugungi kunda ham dolzarbdir. Bu merosga davlat darajasida ham e’tibor qaratilgan: 2020-yil 1-oktyabrda milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishga qo‘shgan beqiyos hissasi uchun Abdulla Avloniy va Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan birga M. Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi [8:]. M. Abdurashidxonov merosini o‘rganish mustaqillik yillarida keng yo‘lga qo‘yildi. Tarixchi olim S. Xolboyev uning xotiralarini nashrga tayyorlab, hayoti va faoliyatini arxiv hujjatlari asosida yoritdi [5], milliy universitetning tarixiy ildizlarini tadqiq etib, M. Abdurashidxonovning dorilfunun tashkil etishdagi o‘rnini asoslab berdi [6]. Uning tanlangan asarlari S. Ahmedov [3] hamda adabiyotshunos B. Qosimov [4] tomonidan nashrga tayyorlangan. Shunga

qaramay, M.Abdurashidxonovning ta’limiy g‘oyalarini aynan zamonaviy ta’lim tizimining aniq muammolari bilan bog‘lab tahlil qilish masalasi hali yetarlicha yoritilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi — M. Abdurashidxonovning “Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasi [1] va “Musulmonlik” asaridan [2] olingan asosiy iqtiboslarini tarixchilar va adabiyotshunoslarning xulosalari bilan qiyosan tahlil qilib, ularda ifodalangan g‘oyalarning bugungi ta’lim tizimidagi real muammolarga qanday amaliy yechim bera olishini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqotda matn tahlili va qiyosiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Birlamchi manba sifatida M. Abdurashidxonovning “Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasi va “Musulmonlik” asaridan olingan to‘rtta asosiy iqtibos tanlandi. Ikkilamchi manba sifatida tarixchi va adabiyotshunoslarning tadqiqotlari, ilmiy maqolalar, ilmiy nashrlarga tayyorlangan izohlar hamda M. Abdurashidxonovning shogirdlari xotiralariga tayangan matbuot materiallari o‘rganildi. Har bir iqtibos alohida mazmuniy jihatdan ajratilib o‘rganildi, so‘ngra zamonaviy ta’lim tizimidagi mos muammo bilan bog‘lanib, amaliy yechim taklif etildi. Tahlil faqat berilgan mavzu doirasida olib borildi.

Natija va muhokamalar

M.Abdurashidxonov 1906-yilda “Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasida millatga murojaat qilib shunday deydi: “Ey qardoshlar, voy millatdoshlar! Ko‘zimiz g‘aflat uyqusidin ochib, atrofimizg‘a nazar solmakimiz lozimdir” [1]. Bu chaqiriqda ilm olishning birinchi sharti sifatida ongni uyg‘otish, atrofdagi voqelikni tanqidiy idrok etish zarurligi ta’kidlanadi. Tarixchi S. Xolboyev M. Abdurashidxonovning nutqlarida shunga hamohang fikr — inson ma’rifatli bo‘lib ko‘zi ochilmaguncha vijdoni uyg‘onmasligi, vijdon uyg‘onmasa u na o‘zini, na xalqni himoya qila olmasligi g‘oyasi — asosiy o‘rin tutganini qayd etadi [10]. S. Xolboyevning fikricha, M. Abdurashidxonov ochgan jadid maktablarining bosh g‘oyalari o‘zlikni anglash va mustaqillik tuyg‘usini shakllantirish edi [8]. Demak, “g‘aflat uyqusidan uyg‘onish” faqat siyosiy shior emas, balki pedagogik dastur ham bo‘lgan: o‘quvchi bilimni passiv qabul qilmasdan, uni anglashi va o‘z hayotiga bog‘lay olishi lozim edi. Bu g‘oya zamonaviy ta’limdagi jiddiy muammoga — o‘quvchi va talabalarning bilimni faqat yodlab olish, imtihon uchun mexanik o‘zlashtirish holatiga — bevosita yechim beradi. Zamonaviy pedagogikada o‘quvchining passiv qabul qiluvchidan faol, tanqidiy fikrlovchi sub’ektga aylanishi ta’limning asosiy maqsadi sifatida qaraladi. Shu ma’noda M.Abdurashidxonovning “ko‘zni ochish” haqidagi chaqirig‘i tanqidiy fikrlash va ongli o‘rganish tamoyillarining milliy ildizi hisoblanadi. Amaliy yechim sifatida dars jarayonida faqat “nima”ni emas, “nima uchun” va “qanday”ni tushunishga qaratilgan

topshiriqlarni kuchaytirish taklif etiladi. “Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasida M. Abdurashidxonov yanada aniqroq fikr bildiradi: “Har millat o‘z saodat hol va istiqbolini muhofazatig‘a birinchi vosita ilm o‘lmakig‘a qanoat hosil qilib, ilm va ma’rifatg‘a ortiq darajada ko‘shish qilg‘on...” [1]. Bu yerda ilm-ma’rifat millatning bugungi farovonligi va kelajagini ta’minlovchi birinchi vosita sifatida ko‘rsatiladi, “ortiq darajada ko‘shish” esa ta’limga maksimal e’tibor va sarmoya qaratish zarurligini anglatadi. M.Abdurashidxonov bu g‘oyani amalda ham ro‘yobga chiqardi: u faqat boshlang‘ich maktab bilan cheklanmay, ta’lim yuqori bosqichlarini ham qurishga intildi. S.Xolboyev uni Turkiston xalq dorilfununi, ya’ni bugungi O‘zbekiston Milliy universitetining tashkil etilishida bosh-qosh bo‘lgan shaxs sifatida ko‘rsatadi [6]. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida u dorilfunun shurosining raisi sifatida qayd etilgan [7].S. Xolboyevning ilmiy maqolalaridan birida uning faoliyati bugungi uch bosqichli ta’lim tizimini tashkil etishda asos bo‘lgan deb baholanadi [9]. M. Abdurashidxonovning ta’lim haqidagi qarashi ijtimoiy adolat jihatiga ham ega edi. Kun.uzning 2025-yil 5- yanvardagi materialida keltirilishicha, shogirdi Elbek xotirasida uni shaharda mardikor otasi bilan ishlab yurgan kambag‘al bolani maktabga jalb qilib, unga homiylik qilgan inson sifatida esga oladi [11]. Bu voqea M. Abdurashidxonov uchun ilm-ma’rifat imtiyozli qatlamning emas, har bir bolaning huquqi bo‘lganini ko‘rsatadi. Bugungi ta’lim tizimidagi ikki muammo — bosqichlar orasidagi uzilish (maktab, kollej va oliy ta’lim o‘rtasidagi uyg‘unlik yetishmasligi) hamda ta’limga teng imkoniyat masalasi — aynan shu g‘oya asosida hal etilishi mumkin. M. Abdurashidxonov yondashuvi ta’limni bir martalik islohot emas, maktabdan oliy ta’limgacha va undan keyingi umrbod o‘qishgacha uzluksiz, hamma uchun ochiq vertikal sifatida qurishni asoslaydi.

M. Abdurashidxonov “Musulmonlik” asarida ta’lim mazmuniga oid muhim tamoyilni ilgari suradi: “Din va dunyo uchun kerakli har xil ilm hamda har xil tillarni o‘qimoq va o‘rganmoq” [2]. Ushbu iborada ikki g‘oya mujassam: birinchidan, ta’lim mazmuni faqat dunyoviy yoki faqat diniy bilim bilan cheklanmasligi kerak; ikkinchidan, zamonaviy inson bir emas, “har xil tillar”ni bilish zarur. M. Abdurashidxonovning bu qarashi amaliy islohotlarda ham ifodalanganini ta’kidlaydi: u mavjud madrasalarni isloh qilib, ularda dunyoviy fanlarni o‘qitish orqali milliy ziyolilar tayyorlash g‘oyasini ilgari surgan, 1923-yildagi xalq maorifi mudirlari qurultoyining chiqishida esa vijdonli va insofli kadrlar tayyorlaydigan dorilfunun g‘oyasini bayon etgan [10]. S.Xolboyevning kitobida keltirilishicha, 1923-yilga kelib 30 dan ortiq madrasa va eski maktabda yangi usulda ta’lim berilgan [10]. Til masalasida ham M. Abdurashidxonov nazariya bilan cheklanmadi. Jadid.uzning 2026-yil 29-sentyabr portalidagi tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1917-yil sentabrda u rus-tuzem maktablarini

“milliy maktab”ga aylantirish va ularda olti yillik o‘quv dasturini joriy etish loyihasini taklif qilgan, shu oyning o‘zida uyida yig‘ilgan 50–60 ziyoli va boy yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish uchun mablag‘ yig‘ishga kelishgan [12]. Uning “Adibi avval” darsligi esa arxiv hujjatlariga ko‘ra rus-tuzem maktablarida ham o‘qitilgan [12]. Bu dalillar M. Abdurashidxonov uchun tillarni o‘rganish va chet el bilimlaridan foydalanish milliy o‘zlikka zid emas, balki uni boyituvchi vosita bo‘lganini ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim tizimidagi ikki muammo — fan bilimlari bilan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning bir-biridan ajralib qolishi hamda globallashuv sharoitida ko‘p tillilik va akademik mobillik ehtiyoji — shu tajribaga tayangan holda fan, ma’naviyat va chet tillarni uyg‘unlashtirgan o‘quv dasturlari hamda xalqaro almashinuv va grant dasturlarini kengaytirish orqali hal etilishi mumkin.

“Musulmonlik” asaridagi yana bir tamoyil shunday ifodalangan: “Har ishni ilm, ittifoq va to‘g‘rilik bilan qilmoq” [2]. Bu tamoyilda bilim (ilm), hamjihatlik (ittifoq) va halollik (to‘g‘rilik) muvaffaqiyatning uzviy sharti sifatida beriladi. M. Abdurashidxonov ushbu tamoyilga o‘zi ham amal qilgan. B. Qosimov keltirgan ma’lumotga ko‘ra, 1909-yil 12-mayda tasdiqlangan xayriya jamiyati nizomida muassislar qatorida M. Abdurashidxonov bilan birga Abdulla Avloniy va boshqa ziyolilar ko‘rsatilgan; jamiyat muhtojlarga yordam ko‘rsatishdan tortib, yoshlarni o‘qitish va chet ellarga yuborishgacha bo‘lgan keng vazifalarni ko‘zlagan [13]. Bu — “ittifoq” tamoyilining amaliy namunasidir. “To‘g‘rilik” tamoyili esa uning ta’limga qo‘ygan talabida ko‘rinadi: dorilfunun g‘oyasida vijdonli va insofli kadrlar tayyorlash masalasi asosiy o‘rin tutgan [10]. Bugungi ta’lim tizimida bu uch unsurning har biri muhim muammo bilan bog‘liq: sof bilim berish yetarli emas, uni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi ham zarur; individual raqobatga asoslangan o‘qitishdan farqli, zamonaviy pedagogika hamkorlikdagi ta’lim shakllarini targ‘ib qiladi — bu “ittifoq” tamoyiliga mos keladi; akademik esa dunyo ta’lim tizimlarida dolzarb masala bo‘lib turibdi — bu “to‘g‘rilik” talabiga to‘g‘ri keladi. Shu bois M. Abdurashidxonovning “ilm, ittifoq va to‘g‘rilik” formulasini jamoaviy loyihalar va akademik halollik tamoyillarini ta’limga singdirish uchun tayanch g‘oya sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tahlil M. Abdurashidxonovning asl iqtiboslarida ifodalangan g‘oyalar olimlarning xulosalari bilan mos kelishini va zamonaviy ta’limning to‘rtta muhim yo‘nalishi — ongli o‘rganish, uzluksiz va teng imkoniyatli ta’lim, kompleks o‘quv dasturlari hamda hamkorlik va halollik tamoyillari — bilan izchil bog‘lanishini ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda bu bog‘liqlik umumlashtirilgan.

1-jadval

Munavvarqori g‘oyasi (asl manba)	Zamonaviy ta’lim muammosi	Taklif etilayotgan yechim
G‘aflatdan uyg‘onish, ongli munosabat (“Bizni jaholat – jahli murakkab”, 1906)	O‘quvchilarning ta’limga passiv, mexanik yondashuvi	Tanqidiy fikrlash va ongli anglashga asoslangan ta’lim metodlari
Ilm-ma’rifat — saodatning birinchi vositasi (“Bizni jaholat – jahli murakkab”, 1906)	Ta’lim vertikalining uzilishi, teng imkoniyat yetishmasligi	Uzluksiz va inklyuziv ta’lim tizimi
Diniy va dunyoviy ilm, ko‘p tillilik (“Musulmonlik”)	Fan va ma’naviy tarbiyaning ajralishi; til va mobillik masalasi	Kompleks o‘quv dasturlari va xalqaro akademik almashinuv
Ilm, ittifoq va to‘g‘rilik (“Musulmonlik”)	Akademik halollik va hamkorlik ko‘nikmalarining yetishmasligi	Jamoaviy loyihalar va akademik halollik tamoyillari

Jadvaldagi har bir satr M. Abdurashidxonovning asl iqtibosidagi g‘oyani olimlar talqini bilan tasdiqlab, zamonaviy ta’lim tizimidagi muayyan muammoga mos yechim bilan bog‘laydi. Bu uning merosi nafaqat tarixiy-ma’rifiy, balki amaliy-pedagogik ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot davomida Munavvarqori Abdurashidxonovning “Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasi va “Musulmonlik” asaridan olingan to‘rtta asosiy iqtibos S. Xolboyev va boshqa tadqiqotchilarning xulosalari bilan qiyosan tahlil qilinib, ulardagi g‘oyalarning zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishdagi o‘rni asoslab berildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “g‘aflat uyqusidan uyg‘onish” chaqirig‘i tanqidiy va ongli o‘rganishga, “ilm-ma’rifatga ortiq darajada ko‘shish” fikri ta’limni uzluksiz va hamma uchun ochiq vertikalga aylantirishga, “din va dunyo ilmi hamda har xil tillarni o‘rganish” g‘oyasi kompleks va ko‘p tilli o‘quv dasturlariga, “ilm, ittifoq va to‘g‘rilik” tamoyili esa hamkorlik va akademik halollikka bevosita zamin yaratadi. Munavvarqori bu g‘oyalarni nazariyada qoldirmay, maktab, dorilfunun va xayriya jamiyatlari orqali amalda sinovdan o‘tkazgani ularning hayotiyligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Munavvarqorining “g‘aflat uyqusidan uyg‘onish” g‘oyasini dars metodikasida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar ishlab chiqishda nazariy asos sifatida qo‘llash tavsiya etiladi.

2. “Din va dunyo ilmi hamda har xil tillarni o‘rganish” tamoyili asosida fan, ma’naviyat va chet tillarni uyg‘unlashtirgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish hamda yoshlarni xorijda o‘qitish dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

3. “Ilm, ittifoq va to‘g‘rilik” formulasini oliy ta’lim muassasalarida akademik halollik va jamoaviy loyiha ishlarini targ‘ib qilish bo‘yicha tarbiyaviy tadbirlarda tayanch g‘oya sifatida qo‘llash tavsiya etiladi.

Umuman, tadqiqot natijalari Munavvarqori Abdurashidxonovning ta’limiy merosi ahamiyatini yo‘qotmaganini va zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy manbai bo‘la olishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashidxonov M. “Bizni jaholat – jahli murakkab”. 1906-yil.

2. Abdurashidxonov M. “Musulmonlik”. – Toshkent: Movarounnahr, 2004.

3. Abdurashidxonov M. “Tanlangan asarlar” . Nashrga tayyorlovchi S. Ahmedov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003. – 203 b.

4. Abdurashidxonov M. “Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar)” Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi S. Xolboyev. – Toshkent: Sharq, 2001.

5. Abdurashidxonov M. “Tanlangan asarlar”. II jild. Nashrga tayyorlovchi B. Qosimov. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

6. “Abdurashidxonov M.– Mohir pedagog va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi” Zenodo, 2024. DOI: 10.5281/zenodo.10822778.

7. Abdurashidxonov M. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000–2005 (qomus.info).

8. O‘zA muxbiri Nazokat Usmonova “Maktab, yoshlar kelajagi, ta’lim, millat taqdiri Munavvarqori hayotining mazmuni edi” sarlavhali maqola, O‘zA, 2023-yil 20-noyabr. – uza.uz.

9. Xolboyev S. “Milliy universitetning tarixiy ildizlari va tashkil topishi”. – Toshkent: Sharq, 2003.

10. Xolboyev S. Munavvarqori Abdurashidxonov (“Jadidlar” turkumi, 8-qism). – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

11.“Unga hech kim Toshkentda “sen” deb gapirgan emas” – M. Abdurashidxonovning hayoti va faoliyatiga nazar. Kun.uz, 2024-yil 5-yanvar.

12. M. Abdurashidxonov // Jadid.uz portali. – jadid.uz, 2026-yil 29-sentyabr.

13. Qosimov B. Abdulla Avloniy. – Toshkent, 1979 (“Jamiyati xayriya” nizomi haqidagi izoh).